

№7 (3) 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Үрманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик
Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li</i>	
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR	9-15
<i>Zoqidov Қобилжон Тоиржонович</i>	
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ	16-20
<i>Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich</i>	
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIY TA'MINOT SIYOSATI	21-26
<i>Хайназаров Баҳромжон Баҳтиёрович</i>	
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЖОРӢЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)	27-32
<i>Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРФИБОТИДА ТУТГАН ЎРНИ	33-41
<i>Bobodustov Bobur Mirzaboyevich</i>	
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI	42-47
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
XX АСРНИНГ 30-50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА	48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Казаков Олим Сабирович</i>	
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙўНАЛИШЛАРИ	56-60
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	61-67
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	68-76
<i>Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадирович</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО ТУРИЗМА	77-82
<i>Xolmurotov Fozil Saribayevich</i>	
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH	83-91
<i>Худайназарова Диляром Хайруллаевна</i>	
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	92-100

Ғойипназаров Санжар Баходирович
СУНЬЙИ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРӢӢ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР 101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI 111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фарруҳ Абдураҳманович
АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭҲТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙГУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ 120-126

Tojiboev Sarvar Pўлатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ 127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI 133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI 138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVİY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKALARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI 151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI 161-167

Мухамедова Феруза Баҳодир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА 168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI 175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARNING QO'LLANILISHI 181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI 186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Жавлиев Нурали Баходирович</i> МАЪМУРИЙ-ХУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ	191-195
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i> БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҶСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ)	196-204
<i>Usmanov Alisher Tolmasovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	205-213
<i>Авезова Элеонора Паракатовна</i> РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	214-218
<i>Муқумов Бобур Мелибод угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	219-224
<i>Туракулова Назира Абдишукуровна</i> СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ: ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН	225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хўжамкелдиев Faфур Султон ўғли</i> СПОРТ МАШФУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	233-237
<i>Aziz Xasanovich Rajabiy</i> BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	238-242
<i>Malikova Sevar Samatovna</i> BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	243-246
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ	247-251
<i>Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi, Inomov Faxriddin O'rmonjonovich</i> AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES	252-257
<i>Асадуллаева Наргиза</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	258-265
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi</i> BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA КОМПЕТЕНСИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРISHNING PEDAGOGIK MODELI	266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Numonjonov Shohzodbek Dilshodjon uғli</i> OLIY TEHNIKA TA'LLIMIDA MEХNAT MUХOFAZASI VA TEHNIKA XAVFSIZLIGI KOИDALARINI ЎҚITISHDA ЭLEKTRON METODIK ASOSLARNING ILMIIY AҲAMIAHYI	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSİYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Umronov Eldorbek Sodirovich
Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi
Email: eldorbekumronov@gmail.com

TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqlada turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini baholashda uning turlicha yondashuvlari, kurashini baholash va raqobat nazariyasini tahlil qilish ushbu tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi quyidagi muhim holatlar o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini baholashda raqobatbardoshlikning ichki va tashqi omillari, raqobatbardoshlikni baholashga yondashuvlar tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan va asoslangan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik xizmatlar, raqoat, raqobatbardoshlik, baholash, turistik faoliyat, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlikning ichki va tashqi omillari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

Umronov Eldorbek Sodirovich
Teacher of Fergana Polytechnic Institute

ECONOMIC FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY WITHIN THE FRAMEWORK OF TOURIST ENTERPRISES

Abstract. In the article, the following important situations affecting the competitiveness of these business entities are studied: different approaches to the assessment of business activity in tourist enterprises, evaluation of its struggle and analysis of the theory of competition. In the course of the research, the internal and external factors of competitiveness in the assessment of business activity in tourist enterprises, approaches to the assessment of competitiveness were formed and based by the author on the basis of research.

Key words: tourism, tourist services, competition, competitiveness, assessment, tourist activity, economic indicators, internal and external factors of competitiveness, small business and private entrepreneurship.

Умронов Элдорбек Содирович
Ферганский политехнический институт, преподаватель

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАМКАХ ТУРИСТСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация. В статье исследуются вопросы, влияющие на конкурентоспособность хозяйствующих субъектов: различные подходы к оценке деловой активности в туристских предприятиях, оценка борьбы и анализ теории конкуренции. В ходе исследования были обоснованы внутренние и внешние факторы конкурентоспособности при оценке деловой активности туристских предприятий, а также подходы к оценке конкурентоспособности.

Ключевые слова: туризм, туристские услуги, конкурентоспособность, оценка, туристская деятельность, экономические показатели, внутренние и внешние факторы конкурентоспособности, малый бизнес и частное предпринимательство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N10>

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanish davri jahon bozorlari iqtisodiyotida turizm sohasida keskin o'zgarishlarni joriy qilish davriga to'g'ri keldi. Turizm sohasi jahonda iqtisodiyotning ahamiyatli sohalaridan biri sifatida tan olindi. Aynan turizm industriyasi jahon miqyosida millionga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish bilan ta'minlab, ularda kasb mahoratining shakllanishiga imkoniyat yaratib bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu sohada ish bilan ta'minlanish holati boshqa sohalarga qaraganda, ikki barobar tez ortib bormoqda. Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik omillar ta'sir ko'rsatadi.

Turizm korxonalari faoliyatida tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rta va uzoq muddatli rejalshtirishning murakkabligi va noaniqligi tashqi muhitning yuqori o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadigan vaqt omilining ahamiyatini belgilaydi. Shuning uchun turizm yo'nalishida tadbirkorlikning faoliyat ko'rsatishi rejalshtirish, rejalarни amalga oshirish va nazorat qilishni o'zgartirgan holda uzlusiz jarayon sifatida qaralishi lozim. Bu natijalarni aniqlash, vaziyatni boshqarish hamda natijalarni nazorat qilish va tartibga solishdan iborat kompleks jarayonni tashkil kiladi. Bizning fikrimizcha, yuzaga kelgan holatdan chiqish yo'li yuqorida taklif etilgan yondashuvlardan kelib chiqib, turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini davlat darajasida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Turistik korxonalar faoliyatida tadbirkorlikni rivojlantirishda tadbirkorlik tuzilmalari, hokimiyat va tabiatning o'zaro aloqasiga asoslanadi. Bu esa vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlarining o'zaro birikishiga imkon beradi. Vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlarining o'zaro birikishi ijtimoiy-iqtisodiy risklarni minimallashtirishning real imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Tabiiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish bo'yicha tamoyillarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, u tadbirkorlik faoliyatini rejalshtirish va tashkil etish mazmunini to'ldiradi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmiga ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish aloqalarining qo'shimcha shakllari, iqtisodiy rag'batlantirish dastaklari sifatida kiritilishi lozim.

Tadbirkorlikning tashqi makromuhiti tadbirkor nuqtai nazaridan eng kam subyektiv kategoriya hisoblanadi. Tadbirkorlikning tashqi makromuhiti tashkilot faoliyatida bevosita tadbirkorlik obyekti hisoblanmaydi va uni o'zgartirish davlatning bevosita nazorati ostida bo'lishi kerak. Ilmiy nuqtai nazardan tadbirkorlik faoliyatini o'rganishga bo'lgan eng katta amaliy qiziqish bevosita tadbirkorlik ta'sirlarining obyekti bo'lgan tashqi biznes mikromuhiti va ichki biznes muhitidan kelib chiqadi. Tadbirkorlik faoliyatining samarali rivojlanishi uchun turizm faoliyatini tashkil etishning yakuniy natijasiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi makro va mikro muhitning asosiy omillari holatini kuzatish lozim [1; B.155].

Bu muammolarni bartaraf etish uchun turizm faoliyati yo'lga qo'yilayotgan hududda faoliyatning kuchli va zaif tomonlari, xatar va imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi SWOT tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiqliqdir. SWOT tahlili orqali tabiiy-iqtisodiy hudud yoki

mintaqada turizm va ekskursiya faoliyatining quyidagi asosiy rivojlanish strategik yo'nalishlarini shakllantirish imkonini qo'lga kiritiladi:

- turizm faoliyati sohasidagi davlatning tartibga solish tuzilmalari siyosatining oshkoraligini ta'minlash va ushbu faoliyat natijalariga erishish uchun hududiy boshqaruv organlari tomonidan, shu jumladan, tabiiy obyektlarning mavjud imkoniyatlarini baholash, ularni ijaraga olish va uzoq muddatli foydalanish bo'yicha har tomonlama foydali ko'p qirrali hamkorlik qilish;

- tabiiy-iqtisodiy hududda yangi resurslar va imkoniyatlardan foydalanish asosida barcha manfaatdor tomonlar foydasini ta'minlovchi turizm faoliyatini birgalikda rivojlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

- turizm faoliyati rivojlantirilayotgan hududlarda turistlar oqimini tartibga solish va yanada ko'proq jalb qilishning samarali tizimini joriy etish;


- turizm, shuningdek, turistik-ekskursiya xizmatlari zonasida tartibga solish obyektlari va elementlarini hududiy hamda loyihibaviy rejalashtirishda marketing elementlaridan foydalanish.

Shu bilan birga, turizm faoliyatini tashkil etishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish jarayonidagi asosiy muammo – ekotizimlarning tabiiy majmualari va ularga mos keladigan rivojlanish usullarining xilma-xilligi, tashrif buyuruvchilarining turli guruhlardan tashkil topishi, mahalliy aholi va korxonalar ta'sirining ko'pligidir. Bunday sharoitda tabiatni muhofaza qilish va turizm vazifalarini samarali hal etish uchun hududni funksional rayonlashtirish yoki bo'linishini turli ustuvor maqsadlardagi hamda muhofaza qilish va foydalanishning turli rejimlaridagi bo'limlarga qo'llash lozim. Nazariy manbalar asosida turizm faoliyati doirasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun strategik rejalashtirishni ishlab chiqish uslubiyotini aniqlashga harakat qilindi (1-rasm).

Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri turistik majmuani davlat va biznes sohasi tomonidan birgalikda tashkil etish va rivojlantirishni belgilab beradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda manfaatdor tomonlarning "birgalikda ishtiroki" asosida turistik majmuani tashkil etish va rivojlantirish mexanizmi shakllangan.

Ilmiy adabiyotlarda turizmni tartibga solishda davlat ishtiroki modellarining uch turi mavjud.

Birinchi model AQShga xos bo'lib, uning asosiy xususiyatlari turizmni tartibga soluvchi markaziy davlat organining yo'qligi va "o'z-o'zini tartibga solish" tamoyillarining mavjudligidir. Mazkur model milliy iqtisodiyotda turizm asosiy daromad manbai bo'limgan, shuningdek, turistik bozor subyektlari o'z muammolarini davlat organlari ham aralashuvizsiz bartaraf eta olishlari ta'minlangan davlatlar uchun xosdir. Bunday tashkil etish va rivojlanish modeliga o'tishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:



1-rasm. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini maqsadlar bo'yicha strategik rejalashtirish ketma-ketligi¹

- sohani federal byudjetdan moliyalashtirish imkoniyatlarining yo'qligi;
- davlatning shakllangan turistik imijining mavjudligi va natijada qo'shimcha reklamaga ehtiyojning yo'qligi;
- butun milliy bozor manfaatlari yo'lida masalalarni mustaqil hal qila oladigan iqtisodiy jihatdan kuchli va mustaqil turizm korxonalarining mavjudligi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ikkinchi model turizm mamlakatning asosiy daromad manbalaridan biri bo'lgan Misr, Turkiya, Tunis kabi mamlakatlar uchun xosdir. Bu model amal qilishining asosiy xususiyatlari barcha korxonalar uchun markaziy boshqaruv organining mavjudligi va natijada butun sayyohlik va dam olish majmuasining davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan belgilanadi. Ushbu model turizm industriyasining rivojlanishi uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratish zarur bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir. Bunda asosiy turizm industriyasiga, xususan, reklama va marketing faoliyatiga, turizm industriyasiga va infratuzilmaga investitsiyalar ko'rinishidagi muhim moliyaviy qo'yilmalar kiritilishi hisoblanadi.

Uchinchchi model Yevropa mamlakatlari uchun xosdir. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyati milliy turizm mahsulotlarini xalqaro va ichki turizm bozorida joylashtirishga qaratilgan umumiy masalalarini (normativ-huquqiy, mintaqaviy organlarni muvofiqlashtirish, xalqaro hamkorlik) va marketing faoliyati masalalarini tartibga solish turizm sanoati vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilishidir. Bunday model amal qiluvchi mamlakatlarda turizm faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar tegishli tarmoq bo'linmasi darajasida ko'p tarmoqli davlat tizimi tomonidan hal etiladi [3; B.29-30]. Bu model Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari, Rossiya kabi mamlakatlar uchun xosdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda shakllangan turizm tuzilmalarining rivojlanishi va tartibga solinish holati tahlili yuqorida ko'rsatib o'tilgan modellarning alohida shaklidan emas, balki, rivojlanish tizimi har uchala modelning umumiy birikmasi shaklidan foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

1-jadval

Farg'ona viloyati shahar va tumanlarining asosiy omil parametrlarining ekspert baholari¹

Nº	Shahar va tumanlar	Ekologik omil	Tabiiy omillar	Transport omili	Ijtimoiy-madaniy omillar	Landshaft omili
1	Farg'ona sh.	0,32	0,41	0,82	0,72	0,53
2	Qo'qon sh.	0,27	0,37	0,73	0,78	0,42
3	Quvasoy sh.	0,47	0,54	0,71	0,79	0,38
4	Marg'ilon sh.	0,21	0,34	0,72	0,77	0,36
5	Oltiariq	0,71	0,72	0,61	0,43	0,65
6	Qo'shtepa	0,52	0,47	0,59	0,52	0,44
7	Bag'dod	0,35	0,48	0,57	0,54	0,49
8	Buvayda	0,34	0,51	0,62	0,57	0,51
9	Beshariq	0,73	0,81	0,57	0,46	0,69
10	Quva	0,55	0,67	0,61	0,59	0,52
11	Uchko'prik	0,41	0,53	0,63	0,64	0,58
12	Rishton	0,49	0,51	0,58	0,83	0,55
13	So'x	0,84	0,69	0,45	0,47	0,63
14	Toshloq	0,44	0,49	0,65	0,55	0,53
15	O'zbekiston	0,38	0,48	0,59	0,62	0,52
16	Farg'ona	0,77	0,83	0,63	0,58	0,72
17	Dang'ara	0,47	0,53	0,52	0,63	0,56

¹ Ekspertlar baholari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

18	Furqat	0,38	0,49	0,49	0,64	0,46
19	Yozyovon	0,69	0,56	0,47	0,53	0,59

Tadqiqotni amalga oshirish doirasida turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining strategik rivojlanishini tashkil etish usullari resurslarni to'plashda ularni diversifikatsiya darajasini baholash orqali umumlashtiriladi va tizimlashtiriladi. Diversifikatsiya har bir aniq xizmatni taqdim etish uchun turli xil moddiy va nomoddiy resurslardan, ishlab chiqarish texnologiyalaridan, kasbiy mahorat va ko'nikmalardan foydalanish zarurligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun turizm sohasi xizmat ko'rsatish sohasining boshqa tarmoqlariga qaraganda kengroq va xilma-xil tashkiliy tuzilmasini namoyon etadi [2; B.2].

Ushbu maqolada hududlar bo'yicha resurs salohiyatni multiplikativ baholash asosida tahlillar amalga oshirildi. Bugungi kunda yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy mamlakatlarda soha faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan modellar asosida mamlakatimiz hududlarida ham turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda. Soha faoliyatida natijaviy omil sifatida ko'rيلayotgan, ya'ni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillarni kognitiv yondashuvlar asosida ajratib olish hamda faoliyatga samarali resurslar kiritish asosida taraqqiyotni jadallashtirish imkonini kengaytimoqda. Oxirgi davrlarda turizm xizmatlari bozorida mana shunday yondashuvlar asosida kiritilayotgan resurslarni multiplikativ jihatdan baholash asosida rivojlanish choratadbirlari ishlab chiqilmoqda.

Maqolada Farg'ona viloyatining turistik resurs salohiyatini alohida o'rganish asosida hamda bugungi kunda sohani rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarida keltirilgan resurs komponentlarni hisobga olgan holda zonalashtirishga harakat qilindi. Hududlarni zonalashtirishda sohada faoliyat olib borayotgan tajribali mutaxassislar fikrlari inobatga olindi va turistik resurs salohiyatini e'tiborga olgan holda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiruvchi hududlar alohida zonalarga ajratildi. Farg'ona viloyatining ekologik, tabiiy, transport, ijtimoiy-madaniy, landshaft salohiyatini hisobga olib, Beshariq, Oltiariq, Farg'ona tumanlarini tibbiy turizm tadbirkorligiga ixtisoslashtirish tavsiya etildi. Shu bilan birga, Qo'qon shahrida milliy hunarmandchilik muzeyi va turizm markazini, Rishton tumanida hunarmandchilik turizmi (kulolchilik) tadbirkorligini, So'x tumanida ekoturizm tadbirkorligini tashkil etish taklif etildi.

Ushbu hududlarda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar hamda resurs komponentlari mavjud. Biroq ushbu hududlarda turizm sohasidagi shu kabi tadbirkorlik faoliyatları uchun resurs komponentlardan foydalanish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tadqiqot ishida ushbu yo'naliishlarda tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga keng e'tibor qaratilishi kelgusida taraqqiyotning rivojlanish davriyligini qisqartiradi hamda faoliyatni optimal rejalashtirish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga soha faoliyatidagi tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy samaradorlik natijalarini baholash imkonini beradi.

Farg'ona viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik (shahar va tuman)larning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun mavjud turistik resurs salohiyatini baholash maqsadida viloyat Turizmni rivojlantirish boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va mehnat munosabatlari boshqarmasi, iqtisodiyot boshqarmasining yetakchi mutaxassislarini ekspertlar sifatida belgilab olgan holda ekspertlarning viloyat hududlarining turistik resurs salohiyatini baholash bo'yicha koeffitsiyentlar shaklidagi xulosalari olindi (1-jadval).

Ekspertlarning viloyat hududlari bo'yicha olingan baholari asosida hududlarning alohida turistik faoliyat bo'yicha ixtisoslashuvini, ya'ni zonalashtirish yo'nalishlarini aniqlashga harakat qilindi. Buning uchun 5 ta asosiy omil guruhlari – ekologik, tabiiy, transport, ijtimoiy-madaniy va landshaft omillari ko'rsatkichlarini umumlashtiruvchi integral koeffitsiyentlar o'rtacha geometrik miqdorni aniqlash orqali hududlarda turistik tadbirkorlikning rivojlantirilishi lozim bo'lgan sohalarini aniqlandi.

$$K_i = \sqrt[5]{K_e \cdot K_t \cdot K_{tr} \cdot K_{im} \cdot K_l}$$

Bu yerda: K_i - umumlashtiruvchi integral koeffitsiyent;

K_e – ekologik omillar koeffitsiyenti;

K_t – tabiiy omillar koeffitsiyenti;

K_{tr} – transport omili koeffitsiyenti;

K_{im} – ijtimoiy-iqtisodiy omillar koeffitsiyenti;

K_l – landshaft omili koeffitsiyenti.

2-jadval

Beshariq, Oltiariq va Farg'ona tumanlarining asosiy omil parametrlarining ekspert baholari¹

Nº	Shahar va tumanlar	Ekologik omil	Tabiiy omillar	Transport omili	Ijtimoiy-madaniy omillar	Landshaft omili
1	Oltiariq	0,71	0,72	0,61	0,43	0,65
2	Beshariq	0,73	0,81	0,57	0,46	0,69
3	Farg'ona	0,77	0,83	0,63	0,58	0,72

Shahar va tumanlar kesimida yuqorida jadval asosida integral koeffitsiyentlar aniqlandi. Aniqlangan integral koeffitsiyentlar hamda alohida omil koeffitsiyentlari tahlili mavjud omil salohiyatidan kelib chiqib, turli hududlarda bir-biridan farqlanuvchi va turlichal tadbirkorlik yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Viloyatning ekologik, tabiiy, transport, ijtimoiy-madaniy hamda landshaft salohiyatidan kelib chiqib, Beshariq, Oltiariq va Farg'ona tumanlaridagi yetarli resurs salohiyati mavjud destinatsiyalarda tibbiy turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi (2-jadval).

$$K_i \text{ Beshariq} = \sqrt[5]{0.73 \cdot 0.81 \cdot 0.57 \cdot 0.46 \cdot 0.69} = 0,64$$

$$K_i \text{ Oltiariq} = \sqrt[5]{0.71 \cdot 0.72 \cdot 0.61 \cdot 0.43 \cdot 0.65} = 0,61$$

$$K_i \text{ Farg'ona} = \sqrt[5]{0.77 \cdot 0.83 \cdot 0.63 \cdot 0.58 \cdot 0.72} = 0,7$$

Viloyatdagi Beshariq, Oltiariq va Farg'ona tumanlarida barcha turdag'i omil salohiyati, jumladan salomatlikni tiklash bilan bog'liq minerel suvlar mavjudligini hisobga olgan holda tibbiy turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mavjud resurs salohiyatini malakali mutaxassislar hamda turizm sohasidagi tadbirkorlik qobiliyati bilan birlashtirish har uchala hududda samarali tibbiy turizmni tashkil etish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatining ayrim tumanlari o'zining tarixiy-madaniy merosi, hunarmandchilikning alohida turlari bilan qadimdan shug'ullanib kelishi hamda turistlarni o'zining sof va tabiiy saqlangan yovvoyi tabiat bilan jalb etuvchi jihatlari bilan ajralib turadi.

¹ Ekspertlar baholari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu hududlarda ularning resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning alohida turlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Qo'qon shahri, Rishton va So'x tumanlarining asosiy omil parametrlarining ekspert baholari¹

Nº	Shahar va tumanlar	Ekologik omil	Tabiiy omillar	Transport omili	Ijtimoiy-madaniy omillar	Landshaft omili
1	Qo'qon sh.	0,27	0,37	0,73	0,78	0,42
2	Rishton	0,49	0,51	0,58	0,83	0,55
3	So'x	0,84	0,69	0,45	0,47	0,63

Masalan, Qo'qon shahri shakllanish tarixi 2000 yildan ortiqroq davrga borib taqaladi va ushbu hudud aholisi qadimdan turli hunarmandlik faoliyat turlari bilan shug'ullanadilar. Hududning integral koeffitsiyenti tarkibidagi ijtimoiy-madaniy omillar guruhi bo'yicha ekspertlar koeffitsiyentlari qolgan hududlarga nisbatan yuqori.

$$K_i \text{ Qo'qon} = \sqrt[5]{0.27 \cdot 0.37 \cdot 0.73 \cdot 0.78 \cdot 0.42} = 0,47$$

Rishton tumani hududida esa qadimdan hunarmandchilikning kulolchilik yo'nalishi rivojlangan bo'lib, ushbu hududda kulolchilik rivojlanshii uchun zaruriy tabiiy resurslar yetarli darajada mavjud. Shu sababli hududda tarixan yuqori malakali kulollar va ularning alohida maktablari shakllangan bo'lib, Rishton kulolchiligi bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mashhurdirlar. Ushbu omil darajasidan kelib chiqib, viloyatning Rishton tumanida ichki va tashqi turistlar uchun keramik estaliklar tayyorlovchi sohani jadal rivojlantirish maqsadga muvofiq.

$$K_i \text{ Rishton} = \sqrt[5]{0.49 \cdot 0.51 \cdot 0.58 \cdot 0.83 \cdot 0.55} = 0,58$$

Farg'ona viloyatining So'x tumani o'zining inson ta'siri kam bo'lgan tabiatni va ekologik resurslari bilan mashhur bo'lib, ushbu hududda ekologik turizm ishqibozlari uchun turistik majmualarni shakllantirish orqali turizm tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqli. So'x tumani tog'li va inson harakatini ma'lum darajada chegaralovchi qiyin harakatlanish hududlari bilan ekologik obyektlar ishqibozlarini keng jalb qilish imkonini beradi.

$$K_i \text{ So'x} = \sqrt[5]{0.84 \cdot 0.69 \cdot 0.45 \cdot 0.47 \cdot 0.63} = 0,6$$

Turizm sohasidagi turistik korxonalar tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirish chegaralarini tizimli tahlil qilish hamda tadbirkorlik daromadlarini cheklaydigan va samaradorlikni pasaytiradigan xatarlarni aniqlash asosida ushbu chegaralarni belgilashning asosiy omillari ishlab chiqarish, moliyaviy va tashkiliy jarayonlarning tuzilishi, sifati va ko'lami ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Hududlarni zonalashtirishda sohada faoliyat olib borayotgan tajribali mutaxassislar fikrlari inobatga olindi va turistik resurs salohiyatini e'tiborga olgan holda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiruvchi hududlar alohida zonalarga ajratildi. Farg'ona viloyatining ekologik, tabiiy, transport, ijtimoiy-madaniy, landshaft salohiyatini hisobga olib, Beshariq, Oltiariq, Farg'ona tumanlarini tibbiy turizm tadbirkorligiga ixtisoslashtirish tavsiya etildi. Shu bilan birga, Qo'qon shahrida milliy hunarmandchilik muzeyi va turizm markazini,

¹ Ekspertlar baholari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Rishton tumanida hunarmandchilik turizmi (kulolchilik) tadbirkorligini, So'x tumanida ekoturizm tadbirkorligini tashkil etish taklif etildi.

Shunday qilib, turistik korxonalarda faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli darajadagi iqtisodiy samaradorlik mavjud bo'lib, ular o'z navbatida turistik korxonalar tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirish chegaralarini belgilash bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Ko'p jihatdan, ushbu chegaralar tadbirkorlik tuzilmasi ichki muhitining holatiga, turistik korxonalarning tizimdagи tutgan o'rнига, tashkiliy, texnik, boshqaruv, kadrlar xizmatining yo'nalishi va sifatiga, shuningdek, umumiy maqsad yo'nalishidagi turistik korxonalarning yagona tuzilmasini shakllantirish imkoniyatlariga bog'liq turistik va ishlab chiqarish muhiti hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Гогоберидзе Г.Г., Аверкиев А.С. Экономика прибрежной зоны.// Российский государственный гидрометеорологический университет. – Санкт-Петербург, 2003 г. - 155 с.
2. Юй И. Управление развитием предпринимательских структур в сфере гостеприимства (на примере КНР). Автореферат на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –М.: МЭСИ, 2015. – 27 с.
3. Umronov E.S. Turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida yozilgan iqtisodiyot fanlari bo'yicha (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi // Andijon 2023.
4. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолияти ривожланишига омиллар таъсирини баҳолаш // Бизнес-эксперт. Бизнес-Daily медиа. – 2022, №4. 69–73-б. (08.00.00 №3).
5. Умронов Э.С. Туристик корхоналарда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2022, № 3(87). 171–176-б. (08.00.00 №21).
6. Umronov E.S. Prospects of Business Development in Tourist Enterprises // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology| e-ISSN: 2792-4025| <http://openaccessjournals.eu> | Volume: 2 Issue: 7 – 49-54 pp.(08.00.00 №24).
7. Umronov E.S. (2022). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Business Activity Development in Tourist Enterprises. European Multidisciplinary // Journal of Modern Science, 9, 73–79 pp.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).